

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
**O'QUVCHILARDA MULOQOTGA KIRISHISHNING IJTIMOIY
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Azimov Asqadjon Axtamovich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda muloqotga kirishishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'r ganilgan. Shuningdek o'smirlik yoshi uning psixologik xususiyatlari va yuzaga keladigan individual xususiyatlari o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: muloqotchanlik, perseosiya, osmirlik yoshi, raqobatbardoshlik, intellekti.

**СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ВСТУПЛЕНИЯ В ОБЩЕНИЕ У УЧАЩИХСЯ**

Аннотация. В данной статье рассмотрены социально-психологические особенности вступления в общение у учащихся. Также В подростковом возрасте изучаются его психологические особенности и возникающие индивидуальные особенности.

Ключевые слова: коммуникабельность, персеозиуда, возраст осмира, конкурентоспособность, интеллект.

**SOCIAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ENTERING INTO
COMMUNICATION IN STUDENTS**

Annotation. This article examines the socio-psychological features of students' entry into communication. Also, in adolescence, his psychological characteristics and emerging individual characteristics are studied.

Key words: sociability, perseosiua, osmirian age, competitiveness, intellect.

Kirish. Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkuri, bozor iqtisodi talabalariga mos ko'nikma va malakalarini shakllantirish,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongingin oliv ko'rinishi bo'lgan intellektual-ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.R.Luriya, D.B.Elkonin tadqiqotlariga ko'ra, bolaning dastlabki ijtim oiy ehtiyojlaridan biri bu — muloqotga nisbatan ehtiyojdir. A.V.Zaporojes va M.L.Lisina izlanishlarida ta'kidlanishicha, bolalarning kattalar bilan muloqotga kirishish ehtiyoji 7 yoshgacha bir nechta bosqichlarda rivojlanib boradi:

1) e'tibor va hayrixohlikka ehtiyoj paydo bo'ladi;

2) kattalar bilan hamkorlik qilish ehtiyoji tug'iladi;

3) avvalgi barcha ehtiyojlarning kattalar tomonidan hurmat qilinishiga ehtiyoj tug'iladi;

Muloqot jarayonida sheriklar orasida, masalan, o'zaro munosabatga kirishuvchi tomonlardan birining shaxsiy mavqeiga nisbatan humatsiz munosabat tufayli turli qarama – qarshiliklar va hatto jiddiy ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Yoki u yoki bu axborotni uzatish jarayonida so'zdan ehtiyotsizlik, no'noqlik bilan foydalanish oqibatida axborotlarda muhim darajadagi yo'qotishlarga yo'l qo'yilishi xizmat vazifalarini bajarishda jiddiy xatoliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Yuqorida holatlar paydo bo'lmashigi uchun maxsus muloqot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganish talab etiladi.

Muloqot psixologiyasida qo'llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

D.N.Uznadze ustakovkalar nafaqat tashqi olam ta'sirida balki, kishilar o'rtasidagi muloqotning verbal vositalari asosida paydo bo'lishini ta'kidlaydi [134].

Shaxs psixologiyasi va shaxslararo muloqot tushunchalari haqida S.L.Rubinshteynning ilmiy izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. U inson psixikasi shakllanishida faoliyat va muloqotning rolini chuqr tahlil etadi. Uning ishlarida jamiyat kishisining tafakkuri uning borliqni ruhiy o'zlashtirishi bo'yicha aqliy faoliyati jarayoni tashqi predmetli faoliyatni ichki ideal reja (interiorizatsiya) ga

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

aylanishi sifatida qaraladi. Bularning hammasi insonning tashqi dunyo va unga bo‘lgan munosabatni ijodiy anglashi vositasida namoyon bo‘ladi.

G.M.Andreevaning fikriga ko‘ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol uynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko‘p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e’tirof etilganidek, muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo‘ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o‘zaro ta’sir).
3. Perseptiv (o‘zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o‘z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o‘zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo‘lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo‘lmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

V.A.Labunskayaning fikrlariga ko‘ra, muloqotdagi qiyinchilik psixologiyasida bir necha jihatlar ko‘rib chiqiladi. Xususan:

- faqat ijtimoiy muloqot, o‘zaro ta’sir vaziyatida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-psixologik hodisa;
- maqsad va natija, tanlangan muloqot modeli va haqiqiy jarayon o‘rtasidagi nomuvofiqlikda ifodalangan ob’yektiv hodisa;
- qondirilmagan ehtiyojlar, motivation, kognitiv, hissiy dissonanslar, shaxsiy ichki nizolar va boshqalarga asoslangan turli xil insoniy tajribalarda aks ettirilgan sub’yektiv hodisa.

Xulosa. Tasviriy san’at yo’nalishi o’quvchilarining muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishning o‘ziga xos tomonlari, holati, maqsadi, vazifalari va unga qo‘yiladigan asosiy talablar o‘rganib chiqilib, o’quvchilar egallashi lozim bo‘lgan davlat talablari va uni egallahdagagi qiyinchiliklar tahlil qilindi hamda uni bartaraf etish zarurligi aniqlandi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).
2. Arzimbetov, T. (2023). Sport jamoalariga ijtimoiy-psixologik xizmat ko'rsatish. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(11), 24-25.

3. Jalgasbaevich, J. T. (2023). Emotional stability in athletes as the basis of a special psychological preparation process. epra International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(7), 143-146.
4. Lisina M.I. Muloqotda bolaning shaxsiyatini shakllantirish. 2009-yil.
5. J.PiajeBolning nutqi va tafakkuri. 1923 yil.